

**QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 3-soni)**



**FILOLOGIYA**

**PHILOLOGY**

**XUSUSIY DISKURSNING KOGNITIV TAMOYILLARI: BADIY MATN VA  
DETEKTIV JANR MISOLIDA TADQIQOT**

**Niyazova Gulnora G‘ulomovna**

*Dotsent (PhD),*

*Renessans ta’lim universiteti.*

*E-pochta: niyazovagulnorakhon@gmail.com*

*ORCID ID : 0000-0001-5905-2129*

**Annotatsiya:** Maqolada shaxsiy nutqning kognitiv va sotsiopragmatik jihatlari tahlil qilinadi. Detektiv janr asarlari misolida nutqiy strategiya va taktikalarning shakllanishi, ularning kommunikativ maqsad va sharoitga bog‘liq holda o‘zgarishi yoritiladi. Shuningdek, diskursiv shaxsning lingvistik vositalar orqali ifodalanishi va badiiy matnlarda kognitiv modellashtirish tamoyillari ko‘rib chiqiladi. O‘zbek adabiyotidagi detektiv janr asarlari misolida axborotni yashirish va oshkor qilish, gipotezalar ilgari surish hamda matnning kommunikativ funktsiyalari chuqur tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** xususiy diskurs, kognitiv model, sotsiopragmatika, kognitiv lingvistika, strategiya, detektiv janr, lingvistik vositalar, nutqiy xatti-harakat, estetik va poetik funksiya.

**COGNITIVE PRINCIPLES OF PRIVATE DISCOURSE: A STUDY BASED ON  
LITERARY TEXTS AND THE DETECTIVE GENRE**

**Abstract** The article analyzes the cognitive and sociopragmatic aspects of private discourse. Using detective genre works as examples, it explores the formation of speech strategies and tactics, highlighting their dependence on communicative goals and context. Additionally, the study examines how the discursive personality is expressed through linguistic means and the principles of cognitive modeling in literary texts. A detailed analysis of detective works in Uzbek literature reveals strategies for concealing and disclosing information, formulating hypotheses, and the communicative functions of the text.

**Keywords:** private discourse, cognitive model, sociopragmatics, cognitive linguistics, strategy, detective genre, linguistic means, speech act, aesthetic and poetic function.

**КОГНИТИВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ЧАСТНОГО ДИСКУРСА:  
ИССЛЕДОВАНИЕ НА ПРИМЕРЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА И  
ДЕТЕКТИВНОГО ЖАНРА**

**Аннотация** В статье анализируются когнитивные и социопрагматические аспекты частного дискурса. На примере произведений детективного жанра рассматривается формирование речевых стратегий и тактик, их зависимость от коммуникативных целей и условий. Также исследуется выражение дискурсивной личности через лингвистические средства и принципы когнитивного моделирования в художественных текстах. Детальный анализ произведений детективного жанра в узбекской литературе позволяет выявить стратегии сокрытия и раскрытия информации, выдвижения гипотез и коммуникативные функции текста.

**Ключевые слова:** частный дискурс, когнитивная модель, социопрагматика, когнитивная лингвистика, стратегия, детективный жанр, лингвистические средства, речевой акт, эстетическая и поэтическая функция.

## KIRISH

Xususiy diskursning kognitiv tamoyillarini tadqiq qilish kognitiv lingvistika doirasida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki xususiy diskurs inson ongidagi murakkab kognitiv jarayonlar – anglash, idrok qilish, mulohaza yuritish va qaror qabul qilish kabi faoliyatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu jarayonlar orqali shaxs o‘z fikrlarini shakllantiradi, atrof-muhitni anglaydi hamda muloqotga kirishadi. Shu bois, xususiy diskursning tabiatini va uning tarkibiy xususiyatlarini o‘rganish, ayniqsa, detektiv janrdagi badiiy matnlar misolida, muloqot strategiyalarini va nutqiy niyatlarni anglashga yordam beradi.

O‘zbek adabiyotidagi detektiv janr namunalari xususiy diskursning kognitiv va pragmatik jihatlarini tadqiq qilish uchun samarali material bo‘lib xizmat qiladi. Chunki bu janrdagi asarlar axborotni yashirish va oshkor qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish, gipotezalar ilgari surish kabi tafakkur jarayonlari bilan bevosa bog‘liqdir. Bunday matnlar til vositalarining faqat lingvistik emas, balki kognitiv va sotsiolingvistik jihatdan ham qanday ishlatalishini tahlil qilish imkonini beradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Badiiy matn kommunikativ hodisa sifatida diskursning maqsadli xususiyatlariga ega bo‘lib, uning tarkibida muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi intellektual va ijodiy hamkorlik ifodalanadi. Ushbu o‘zaro ta’sir jarayoni nafaqat muallifning shaxsiy dunyoqarashini, balki uning personajlarga va ularning qadriyat tizimiga bo‘lgan munosabatini ham aks ettiradi. Matnda aks etgan til birlklari nafaqat estetik va lingvistik axborotni uzatish vositasi bo‘libgina qolmay, balki muallif niyatini, ijtimoiy va madaniy kontekstni ham anglashga yordam beradi. Shu nuqtai nazaridan, M.L. Makarov kabi olimlar muloqot jarayonidagi “o‘yin” tushunchasini kognitiv strukturalarni anglash nuqtai nazaridan muhim omil sifatida ko‘rsatadilar. Ularning ta’kidlashicha, matnning kommunikativ funktsiyalarini tahlil qilish, undagi kognitiv modellarni aniqlash, muallif niyati va o‘quvchining qabul qilish jarayonlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Filologik tadqiqotlar nuqtai nazaridan, adabiyot klassikkulari asarlarining tahlili yozuvchining ijodiy niyatini ochib berish va matnda yashiringan chuqur ma’nolarni anglashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bunda, V.I. Karasikning yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u nutqning kognitiv asoslarini anglash orqali muallifning dunyoqarashini, u ilgari surgan asosiy g‘oyalarni tahlil qilish uchun kalit vazifasini bajarishini ta’kidlaydi. Shu bois, badiiy matnlarni diskursiv tahlil qilish jarayonida ularning kognitiv strukturalarini, kommunikativ strategiyalarini hamda ma’no yaratish mexanizmlarini o‘rganish ilmiy izlanishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tildan foydalanish tahlili muallifning lingvistik shaxs modelini talqin qilish va uni rekonstruksiya qilish uchun muhim asos yaratadi. Ushbu model odatda muallifning o‘ziga xos kontseptsiyasi va tezaurusidan kelib chiqib tavsiflanadi, bu esa uning individual kognitiv va madaniy doirasini, ya’ni kontseptual makonini aks ettiradi. A.V. Kirilina ta’kidlaganidek, kontseptual makon muallif nutqi assosidagi kognitiv jarayonlarni tushunish uchun asosiy vositalardan biri bo‘lib, uning dunyoqarashi, qadriyat tizimi va lingvistik tanlovlарini anglash imkonini beradi.

Bunday yondashuv kitobxon va tadqiqotchiga muallif niyatlarini, madaniy omillar ta’sirini hamda shaxsiy tajribalarini matnda ifodalangan lingvistik va rivoyat tanlovlari bilan bog‘lash imkonini beradi. Shu tariqa, asarning mavzusi va intellektual asoslarini chuqurroq tahlil qilishga yo‘l ochadi. Muallif nutqining o‘ziga xosligi, uslubiy vositalardan foydalanishi, diskursiv strategiyalari va narrativ texnikalari ushbu kontseptual makonni shakllantiruvchi assosiy omillardan biri bo‘lib, ular matnning semantik va pragmatik qatlamlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, lingvistik shaxs modelini tadqiq qilish muallifning kommunikativ strategiyalarini, u o‘quvchi bilan qanday muloqot o‘rnatishini va uning diskursiv yo‘nalishini aniqlashga yordam beradi. Bu jarayon, ayniqsa, badiiy asarlar tahlilida muhim bo‘lib, muallif tomonidan yaratilgan obrazlar, metaforik tuzilmalarning talqini hamda muayyan kontseptlarning lingvistik ifodasi orqali asarning ichki mantiqiy tuzilmasini anglash imkonini beradi.

M. Yo‘ldoshevning badiiy asar tili tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarida tilning nafaqat “ekspressiv vazifikasi”, balki “poetik vazifa”, “badiiy vazifa” va “estetik vazifa” kabi tushunchalar ham batafsil yoritiladi. Tadqiqotchining fikricha, ayniqsa, “estetik vazifa” tushunchasi filologik adabiyotlarda keng qo‘llanadi, chunki u ekspressivlik, badiiylik va poetiklik kabi hodisalarini o‘z ichiga olgan holda, ularning umumiyligi mohiyatini ifodalaydi. Badiiy asar tilini estetik hodisa sifatida tahlil qilish muallifning individual uslubiy mahoratini, badiiy nutq vositalardan foydalanish darajasini hamda til tizimining imkoniyatlarini qanchalik samarali ishga solganini o‘rganishga imkon beradi. Bu jarayonda nafaqat muallifning uslubiy tanlovlari, balki u yaratgan matnning o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatish qirralari ham aniqlanadi. Shunday qilib, badiiy til tadqiqoti faqat lingvistik tekshiruv bilan cheklanib qolmay,

balki muallifning poetik olami, estetik ideallari va badiiy obrazlar tizimi bilan ham bevosita bog‘liq ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

## METODIK TAHLIL

Zamonaviy tilshunoslikda matn til tizimining eng yirik birligi hamda tadqiqotning markaziy obyekti sifatida talqin qilinadi. M. Hakimov ilmiy matn tahliliga bag‘ishlangan dissertatsiyasida “matn” tushunchasi “birikish” va “bog‘lanish” ma’nolarini ifodalashini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, matn birliklarining o‘zaro bog‘liqligi “matn tilshunosligi”ning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu qarashlar bizning tadqiqot yo‘nalishimiz bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, xususan, yozma nutqning strukturasini tahlil qilish va matnning pragmatik mazmunini yoritishda muhim o‘rin tutadi. Matn pragmatikasi matndagi kommunikativ niyat, ijtimoiy-kognitiv omillar va nutqiy strategiyalarni anglashga xizmat qiladi. Shu bois, matnning tuzilishi va undagi bog‘lanish unsurlarini o‘rganish, ayniqsa, xususiy diskurs tadqiqotlari doirasida, matnni integral lingvistik hodisa sifatida tahlil qilishga imkon yaratadi.

Matnning koherentligini tahlil qilishda T.A. van Dijk va M.L. Makarovning matn aloqadorligi haqidagi qarashlari muhim o‘rin tutadi. Ularning tadqiqotlarida matn birliklari orasidagi semantik va pragmatik bog‘lanishlar global va lokal koherensiya orqali amalga oshirilishi ta’kidlanadi. Bu qarashlar badiiy matnlar, ayniqsa, detektiv janrida yozilgan asarlar tahlilida ahamiyatlidir, chunki bu janrga xos bo‘lgan semantik tuzilma va narrativ strategiyalar matnning mantiqiy yaxlitligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir.

Bundan tashqari, matnning bog‘lanish xususiyatlарини о‘рганиш орқали муаллифнинг lingvistik shaxs modelini tahlil qilish ham mumkin bo‘ladi. A.V. Kirilina va V.I. Karasik tadqiqotlarida lingvistik shaxsning kognitiv va diskursiv xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif nutqi matnda uning individual kontseptual makoni va til birliklari orqali aks etib, o‘quvchi bilan o‘ziga xos muloqot maydonini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, matn nafaqat axborotni uzatish vositasi, balki muallifning dunyoqarashi va estetik qarashlarini ifodalovchi ko‘p qatlamlı lingvistik va kognitiv struktura sifatida qaraladi.

Hakimov, shuningdek, “matn” atamasini “nutq” va “kontekst” kabi lingvistik atamalardan farqlash zarurligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, nutq og‘zaki va yozma shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin, biroq yozma shakl matn tushunchasi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, matn va nutq o‘rtasidagi farqlarni aniqlash tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizning tadqiqotimiz aynan nutqning kognitiv va sotsiopragmatik jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, matnning alohida jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Chunki matn lingvistik birlik sifatida faqat grammatic yoki semantik tuzilma emas, balki u o‘z ichiga kognitiv jarayonlar, pragmatik maqsadlar va ijtimoiy konteksti ham qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, matnning aloqadorligi va kommunikativ mazmuni tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur konseptlarni chuqurroq yoritish maqsadida, biz xususiy diskursning kognitiv modellashtirish tamoyillarini T. Malikning Shaytanat asaridan misollar asosida tahlil qilamiz. Ushbu asar faqat syujet dinamikasi va badiiy qimmatga ega bo‘lib qolmay, balki undagi

dialoglar, nutq uslubi va personajlar lingvistik xatti-harakatlari orqali xususiy diskursning turli kognitiv va sotsiopragmatik xususiyatlarini aks ettiradi. Bunda personajlarning nutqiy portretlari, muloqot strategiyalari va diskursiv aloqadorlik vositalari tahlil qilinadi, bu esa matnning kognitiv va pragmatik tuzilishini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

## NATIJALAR

Tilning "ekspressiv", "poetik", "badiiy", va "estetik" vazifalari uning qanchalik keng qamrovli ekanligini ta’kidlaydi. Buni kognitiv modellashtirish nuqtai nazaridan o’rganadigan bo‘lsak, xususiy diskursda mazkur vazifalar qahramonning ichki dunyosi va uning shaxsiy tajribasini ifodalashda qanday rol o‘ynashini anglashda juda muhimdir. Masalan, “Shaytanat” asarida tergovchi Zohid Sharipovning o‘z dushmanlari bilan muloqoti tilning estetik va ekspressiv vazifalari orqali amalga oshiriladi, ammo mazkur jarayonda Zohidning ichki hissiyoti va shaxsiy tajribasi ham aks ettiriladi. Zohidning nutqi uning o‘ziga xos kognitiv modelini yaratadi, bu model uning dushmanlariga nisbatan qanday munosabatda ekanligini va uning qarorlar qabul qilish jarayonida qanday fikrlash usulidan foydalanishini ko‘rsatadi. “Shaytanat” asaridan olingan ushbu parchada xususiy diskursning kognitiv modellashtirish tamoyillarining framing/ramkalash usuli, ya’ni, ekspressiv, poetik, badiiy va estetik vazifalar yordamida qanday qurilishini ko‘rish mumkin. Ushbu parchada Zohid va Chuvrindining o‘zaro muloqotida xususiy diskursning turli kognitiv va lingvistik strategiyalardan foydalanib, qanday shakllantirilganini namoyish etadi. Ularning suhbatida ifoda tili, ichki kechinmalar, histuyg‘ular va ular o‘rtasidagi nozik kuch dinamikasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan;

a) Ekspressiv vazifa, qahramonlarning ichki dialoglari va ular tomonidan ifoda etilgan histuyg‘ularda ko‘rinadi. Xususan, Chuvrindining yolg‘on guvohlik berishda ayblanganida, uning javoblari shaxsiy hissiyotlar va munosabatlar bilan boyitilgan bo‘lib, uning ichki holatini chuqurroq aks ettiradi.

b) Parchadagi poetik va estetik vazifalar, metafora va ramziy tilning nozik ishlatilishida namoyon bo‘ladi. Masalan, Chuvrindining hayot tanlovlari va yo‘llari haqidagi o‘y-xayollari, Zohidning ilmiy karyerani tark etib, prokuratura ishiga kirishi kabi tasvirlar chuqur ma’no va estetik ta’sir uyg‘otadi, bu esa hikoyani yanada qiziqarli va ta’sirchan qiladi. Chuvrindining tashqi ko‘rinishi tasvirlanganda, faqatgina tashqi qiyoфа emas, balki uning ichki haqiqat bilan qanday bog‘liqligini ko‘rsatadi va bu estetik qiyomatni oshiradi.

c) Badiiy vazifa esa qahramonlarning shaxsiyatini shakllantirishda va atmosfera yaratishda ishlatilgan batafsил tasvirlar va ramziy ishoralar orqali amalga oshiriladi. Sud zalining batafsил tasviri, o‘zaro muloqotlar va yashirin ma’no va mazmunga ega bo‘lgan tavsiflar ushbu badiiy qurilishning bir qismidir. Ushbu vazifa adabiy nutq, ayniqsa, detektiv asarlarda, voqeа rivoji va qahramonlar haqidagi ma’lumotlarning yashirin ma’nolarini ochishda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu parchaning tahlili davomida qahramonlarning nutqi orqali kognitiv modellashtirish tamoyillari qanday amalga oshirilganiga e’tibor qaratish lozim. Ayniqsa, ularning nutqi ekspressiv, poetik, badiiy va estetik vazifalarni qanday ifodalashini ko‘rsatib beradi. Tergovchi Zohid va Chuvrindining nutqida Ekspressiv vazifasida Zohidning nutqi rasmiy ohangda

boshlanadi: - Yolg‘on guvohlik berish qonun bo‘yicha jazolanajagini eslatib qo‘ymoqchiman. Ushbu rasmiy til orqali Zohidning mas’uliyati va vazifasi ifodalanadi. Ammo, suhbat davomida Zohidning ohangi pasayib, ko‘proq shaxsiy va hissiy tus oladi: - “Rasmiyatçiligidiz shunaqa, uzr”. Bu yerda Zohid o‘zini yumshoqroq ifodalashga o‘tadi, bu esa uning shaxsiy hissiyotlari va ichki munosabatlarining namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq. U o‘zini himoya qilishdan ko‘ra, suhbatdoshining hissiyotlarini inobatga olishga urinmoqda. Bu esa ekspressiv vazifaning namoyon bo‘lishi bilan ifodalanadi. Chuvrindining nutqida esa poetik va estetik vazifalar o‘z aksini topadi. Mazkur muloqotda uning nutqi quyidagi tarzda taqdim etilgan:

“Yolg‘ondan Xudoning o‘zi asrasin. Yolg‘on guvohlik berish uchun atay kelgan ahmoqqa o‘xshaymanmi?” Chuvrindi tomonidan aytilgan ushbu gaplar nafaqat haqiqatni ifodalashga urinish, balki estetik ta’sir ko‘rsatishga ham qaratilgan. Chuvrindining so‘zlari she’riy va ifodali bo‘lib, uning hayotiy falsafasini aks ettiradi va shaxsiy qadr-qimmatini ko‘rsatadi. Badiiy vazifa badiiy asar mazmunini boyitadi. Chuvrindi bilan Zohid o‘rtasidagi dialog badiiy tasvirlash orqali voqelikni qiziqarli qiladi. Chuvrindi Zohidning rasmiy savollariga hazil va istehzoli ohangda javob beradi, bu esa ikki qahramon o‘rtasidagi keskinlikni yumshatadi va ularning shaxsiyatlarini yanada chuqurroq olib beradi: ”Yaxshi, kompyuterga yozib qo‘yildi, — Chuvrindi shunday deb ko‘rsatkich barmog‘ini chakkasiga tiradi”. Bu joyda Chuvrindi Zohidning rasmiy savollarini istehzoli tarzda qabul qilib, o‘z nutqining badiyligini oshiradi. Badiiy tasvirlash orqali ularning ichki dunyosi va ijtimoiy munosabatlari haqida chuqurroq tushuncha hosil qilinadi. Xulosa qilib shuni aytish mukinku, Zohid va Chuvrindining nutqi kognitiv modellashtirish tamoyillari bilan uzviy bog‘liq. Ularning nutqi nafaqat axborotni yetkazish uchun, balki shaxsiy hissiyotlar, ijtimoiy munosabatlar, va estetik ta’sirlarni yaratish uchun ham ishlataladi. Ekspressiv, poetik, badiiy va estetik vazifalar orqali ularning ichki dunyosi va hayotiy tanlovlari ko‘rsatib beriladi. Mazkur vazifalar faqat syujetni rivojlantiribgina qolmay, balki o‘quvchini qahramonlarning ichki olami bilan chuqurroq tanishtiradi. Bunday integratsiya xususiy diskursda kognitiv modellashtirishning muhim jihatni hisoblanadi, chunki bu shaxslarning murakkab fikrlar va his-tuyg‘ularni qanday qayta ishlashini, bir-birini tushunishini va muloqot qilishini ko‘rsatadi. Mazkur tahlil, olimlar tomonidan kognitiv va lingvistik funksiyalarning nutqda qanday aks ettirilishi haqidagi fikrlarni tasdiqlaydi va ularga amaliy misollar beradi.

Kognitiv tamoyiliga ko‘ra, xususiy diskursda qahramonning ichki psixologik holati va dunyoqarashi ularning tili va muloqotida aks etadi. Bu tamoyil Zohidning harakatlarini va qarorlarini o‘quvchiga yanada tushunarli qiladi qilib yetkazadi, chunki til orqali uning ichki dunyosining qanday shakllanganligi va bu dunyoning o‘zaro muloqotda qanday namoyon bo‘lishi ko‘rsatiladi. Shunga ko‘ra, “Shaytanat” asari orqali biz o‘zbek asarlarida xususiy diskursning kognitiv modellashtirish tamoyillari orqali asar qahramonlari va ularning til tizimi imkoniyatlarini tadqiq qilishni maqsad qilganmiz.

## XULOSA

Shunday qilib, tilning ekspressiv, poetik, badiiy va estetik vazifalari xususiy diskursning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Kognitiv modellashtirish nuqtai nazaridan, bu vazifalar qahramonlarning ichki dunyosi va shaxsiy tajribasini ifodalash uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, "Shaytanat" asaridagi Zohid Sharipov va Chuvrindining muloqoti tilning ushbu funksiyalarining aniq namunasidir. Ushbu dialogda framing (ramkalash) usuli, nutqiy strategiyalar, va muloqot taktikasi orqali qahramonlarning dunyoqarashi, hissiy holati va ijtimoiy munosabatlari ifodalangan.

Bundan tashqari, tahlil shuni ko‘rsatadiki, lingvistik shaxsning kognitiv modeli uning so‘z tanlovi, intonatsiya va dialog tuzilishi orqali shakllanadi. Matn tilshunosligi nuqtai nazaridan esa, xususiy diskursni tahlil qilish orqali matnning pragmatik mazmuni va nutqning kognitiv-sotsiopragmatik jihatlari ochib berilishi mumkin. Ushbu yondashuv badiiy asarlarni lingvistik va psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish uchun samarali usul bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, xususiy diskursning tahlili muallifning lingvistik shaxs modelini o‘rganish, uning matn yaratish tamoyillarini tushunish hamda badiiy nutqning kognitiv va sotsiopragmatik asoslarini aniqlash uchun asos yaratadi. Bu esa kelgusidagi lingvistik tadqiqotlar uchun muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Макаров М.Л. Основы теории дискурса. — М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. — 280 с
2. Карасик В.И. Языковый круг: личность, концепты, дискурс: монография. – 2-е изд. М.: Гнозис, 2004. 390 с.
3. Kirilina A.V. Globalization and the fate of languages // Literary newspaper. 2012. No. 5. Feb. 9–13.
4. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари –Т.: Фан, 2006. – 11-б.
5. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. ДДА. –Тошкент, 2001. – 50 б.
6. Брокмейер, Й. Нарратив: проблемы и обещания одной альтернативной парадигмы [Электронный ресурс] / Й. Брокмейер, Р. Харре. — URL: // www.galapsy.narod.ru / PsyNarrative / Brockmeier.htm (дата обращения: 1 июня 2009 г.).
7. БЭКМ — Большая энциклопедия Кирилла и Мефодия [Электронный ресурс]. — М.: «Кирилл и Мефодий», 2006. — 3 электрон, опт. диска (CD-ROM).
8. ВЭФ - Всемирная энциклопедия: Философия [Текст] / Гл. ред. и сост. А. А. Грицанов. - М.: ACT, мн.: Харвест, Современный литератор, 2001. - 1312 с.
9. Lakoff, G. Philosophy in the Flesh: The Embodied Mind and it’s Challenge to Western Thought [Text] / G. Lakoff, M. Johnson. - New York: Basic Books, 1999. —P. 10-14.
10. Mahmudov N. Presupposiziya va gap. O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1986. –B. 28-30.
11. Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. – Samarqand, 2013. – B. 36-38, 102-104.

12. Dijk, T. A. van. The Study of Discourse [Text] / T. A. van Dijk // Discourse as Structure and Process. Discourse Studies. A Multidisciplinary Introduction. - Vol. 1. - London: Thousand Oaks, 1997. — P. 1-31.
13. Кибрик, А. А1. Когнитивные исследования по дискурсу [Текст] / А. А. Кибрик // Вопросы языкоznания. — 1994. — № 5. — С. 125-137.
14. Степанов, Ю. С. В трёхмерном пространстве языка: Семиотические проблемы лингвистики, философии, искусства [Текст] / Ю. С. Степанов. — М.: Наука, 1985. - 333 с.
15. Арутюнова, Н. Д. Дискурс [Текст] / Н. Д. Арутюнова // БЭСЯ. - 2-е изд. - М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. — С. 136-138.
16. Niyazova, G.G. Diskursni tushunish: tilshunoslikda zamonaviy yondashuv//resp Filologiyaning dolzarb muammolari-xorijiy olimlar ishtirokidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya masalalari to’plami.T. 2024.
17. Niyazova, G.G. Xususiy diskursda lingvistik o’ziga xoslik va kognitiv makon/O‘zbekiston: “Til va madaniya” jurnali.Vol.3(4).2024 [www.tsuul.uz](http://www.tsuul.uz)